O‘SMIRLARNING INGLIZ TILINI O‘ZLASHTIRISHIDA XOTIRA JARAYONLARINING TA’SIRI

D.A.Qurbonova[1]

1. O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti(PhD)

Mas'ul muallif: Qurbonova Dilnoza Arslanovna, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti(PhD).

Received: 26 Oktabr 2026
Accepted: 31 Oktabr 2026
Published: 05 Noyabr 2026

Copyright: © 2026 by the author(s). Licensee Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi.

Iqtibos uchun: Qurbonova, D. A. O‘SMIRLARNING INGLIZ TILINI O‘ZLASHTIRISHIDA XOTIRA JARAYONLARINING TA’SIRI / D. A. Qurbonova // Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi. — 2026. — Т. 11, № 1. — В. 75–77.

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘smirlarning ingliz tilini o‘zlashtirish jarayonida xotira jarayonlarining o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Xotiraning asosiy turlari, ularning til o‘rganishdagi roli hamda o‘smirlik davrida xotiraning rivojlanish xususiyatlari yoritib berilgan. Shuningdek, ingliz tilini samarali o‘zlashtirishda xotirani mustahkamlash usullari va zamonaviy pedagogik yondashuvlar ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari xotira jarayonlari til o‘rganish samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so'zlar: psixologik yondashuvlar, bilish jarayoni, rijovlantirish, xotira, ingliz tilini o‘zlashtirish, o‘smirlar, metodlar.

ВЛИЯНИЕ МНЕМИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ НА УСВОЕНИЕ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА ПОДРОСТКАМИ

Аннотация. В данной статье анализируется роль и значение процессов памяти в процессе освоения английского языка подростками. Выделены основные типы памяти, их роль в изучении языка и особенности развития памяти в подростковом возрасте. Также рассмотрены методы укрепления памяти и современные педагогические подходы к эффективному освоению английского языка. Результаты исследования показывают, что процессы памяти являются важным фактором повышения эффективности изучения языка.

Ключевые слова: психологические подходы, когнитивный процесс, обогащение, память, освоение английского языка, подростки, методы.

THE INFLUENCE OF MEMORY PROCESSES ON ADOLESCENTS’ ENGLISH LANGUAGE ACQUISITION

Abstract. This article analyzes the role and importance of memory processes in the process of adolescents' mastering the English language. The main types of memory, their role in language learning, and the features of memory development in adolescence are highlighted. Also, methods of strengthening memory and modern pedagogical approaches to effective mastering of the English language are considered. The results of the study show that memory processes are an important factor in increasing the effectiveness of language learning.

Keywords: psychological approaches, cognitive process, enrichment, memory, English language mastering, adolescents, methods.

Kirish. Bugungi globallashuv va xalqaro axborot almashinuvi jadallashib borayotgan sharoitda xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini o‘rganish shaxsning intellektual salohiyati, kommunikativ imkoniyatlari va ta’limiy rivojlanishini ta’minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ingliz tilini samarali o‘zlashtirish jarayoni nafaqat grammatik qoidalar va lug‘at boyligini egallash, balki insonning bilish jarayonlari, xususan, xotira faoliyatining rivojlanganlik darajasi bilan ham chambarchas bog‘liq. Chunki yangi so‘zlarni eslab qolish, grammatik konstruksiyalarni xotirada saqlash, talaffuz me’yorlarini o‘zlashtirish va o‘rganilgan bilimlarni nutqiy faoliyatda qo‘llash bevosita xotira mexanizmlari orqali amalga oshadi.

Ayniqsa, o‘smirlik davrida ingliz tilini o‘rganish jarayonining psixologik xususiyatlarini tadqiq etish alohida ahamiyatga ega. Mazkur yosh bosqichida tafakkur, diqqat, tasavvur va xotira jarayonlarida muhim sifat o‘zgarishlari yuz beradi. O‘smirlarning mavhum-mantiqiy fikrlashi rivojlanib, axborotni anglash, tahlil qilish, umumlashtirish va mustaqil xulosalar chiqarish imkoniyatlari kengayadi. Shu bilan birga, ularning eslab qolish faoliyatida mexanik yodlashdan mazmuniy va mantiqiy eslab qolishga o‘tish tendensiyasi kuchayadi. Bu holat ingliz tilidagi yangi leksik birliklar, grammatik qoidalar va nutqiy qoliplarni ongli ravishda o‘zlashtirish uchun muhim psixologik zamin yaratadi.

Xotira insonning avvalgi tajribasini saqlash, qayta tiklash va undan yangi faoliyat jarayonida foydalanishini ta’minlaydigan murakkab psixik jarayondir. Ingliz tilini o‘zlashtirishda xotiraning bir nechta turlari o‘zaro hamkorlikda faoliyat ko‘rsatadi. Jumladan, qisqa muddatli xotira yangi so‘z va iboralarni dastlabki qabul qilishda, uzoq muddatli xotira ularni barqaror saqlashda, operativ xotira esa o‘qish, tinglab tushunish va og‘zaki nutq jarayonida zarur axborotni tezkor qayta ishlashda muhim rol o‘ynaydi.

Shuningdek, eshitish, ko‘rish va harakat bilan bog‘liq xotira shakllari yangi til materiallarini turli kanallar orqali o‘zlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

O‘smirlarning ingliz tilini o‘rganish samaradorligiga xotiraning faqat hajmi yoki eslab qolish tezligi emas, balki axborotni qayta ishlash usullari, diqqatni jamlash qobiliyati, hissiy holati va o‘quv motivatsiyasi ham ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, o‘rganilayotgan so‘zlarning mazmunini anglash, ularni muayyan vaziyatlar bilan bog‘lash, takrorlash va amaliy nutqda qo‘llash xotirada mustahkam saqlanishiga yordam beradi. Aksincha, mazmunsiz takrorlash, o‘quv materialining haddan tashqari ko‘pligi, diqqatning tez chalg‘ishi va o‘rganishga nisbatan qiziqishning pasayishi eslab qolish samaradorligini kamaytirishi mumkin.

Bugungi kunda ingliz tilini o‘rganish o‘smirlar uchun muhim ehtiyojga aylangan. Tilni samarali o‘zlashtirish esa nafaqat dars metodlariga, balki psixologik jarayonlarga ham bog‘liq. Shunday muhim omillardan biri – bu xotira jarayonlaridir. Xotira o‘quvchining yangi so‘zlarni eslab qolishi, grammatik qoidalarni tushunishi va ularni amalda qo‘llashida muhim rol o‘ynaydi. Ingliz tilini o‘rganishda uchraydigan keng tarqalgan muammolar, masalan, suhbat davomida so‘zlarni tezda esga tushira olmaslik, ko‘pincha bilim yetishmasligidan emas, balki xotira jarayoning rivojlanganlik darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Adabiyotlar sharxi. Psixologiya rivojlanishining boshlanishi bilanoq olimlar tomonidan xotira masalalarini o'rganishga e’tibor qaratilgan. Psixolog A.N. Leontyevning e’tirof etishicha xotira muhim psixologik kategoriya bo'lib, bugungi kunda turli xil ma'lumotlarni yodlash, yodda saqlash va qayta ishlashni o'z ichiga olgan aqliy jarayon sifatida belgilanadi.

T. A Podugolnikovani ta’kidlashicha, xotira jarayoni o'rganishda, bilim olishda, ko'nikma va qobiliyatlarni rivojlantirishda va tananing moslashuvida muhim omil bo'lib xizmat qiladi, bu esa shaxsning mavjud tajribasi hozirgi hayot sharoitiga proektsiyalanganda mumkin bo'ladi[1].

"Xotira" atamasi xotira nazariyotchilari va tabiiy til foydalanuvchilari tomonidan bir necha hil ma'noda qo'llaniladi. Ushbu atamaning uchta asosiy ishlatilishi bor: xotira axborot ombori sifatida, xotira ushbu ombor ichidagi va undan olingan axborot sifatida va xotira ushbu ma'lumotni qayta ishlash bilan bog'liq muayyan vazifalarni bajarish uchun maxsus neyrokognitiv qobiliyat sifatida, masalan, axborotni kodlash, saqlash yoki olish [2]. Shuningdek, Tulving "xotira" atamasining yana uchta qo'llanilish holatlarini sanab o'tadi, ya'ni xotira axborotning xususiyati sifatida, xotira olishning tarkibiy qismi sifatida va xotira eslab qolish bilan bog'liq fenomenal xabardorlik sifatida.

Xotira bo'yicha psixologik adabiyotlarda uchta keng tarqalgan atama "reproduksiya", "konstruktsiya" va "qayta qurish" hisoblanadi. Xotira avvalgi tajribani mukammal saqlanib qoladigan tarzda qayta yaratmasligi haqida umumiy fikrlar mavjud. Shunga qaramay, tadqiqotchilar, agar mnemonik ma'lumotni kodlash, saqlash yoki olishda xatolar yuzaga kelsa, xotira noto'g'ri ekanligini aytishadi. Garchi bu zararsiz va hatto aniq nuqta bo'lib tuyulsa-da, u Kempbell (2004) ta'kidlaganidek, "xotira reproduksiya sifatida" yoki "arxiv modeli"ga yashirin majburiyatni o'z ichiga olishi mumkin. Buning sababi, qayta ishlashdagi muvaffaqiyatsizliklar asosan ushbu ma'lumot olingan tajribadagi kabi ma'lumotni kodlash, saqlash yoki olishdagi muvaffaqiyatsizliklar sifatida qaraladi. Shuning uchun saqlashdagi muvaffaqiyatsizlik funksiyadagi muvaffaqiyatsizlikka tenglashtiriladi. Xotirani qayta tiklash harakatining asosidagi kognitiv jarayonlar tom ma'noda xotiralarni yaratadi degan ma'noda konstruktivdir (Schacter, Norman va Koutstaal, 1998). Biroq, bu eksperimental psixolog F.C. Bartlett o'zining "Eslab qolish: Eksperimental va ijtimoiy psixologiyada tadqiqot" nomli asosiy asarida "qurilish" va "qayta qurish" deganda nimani nazarda tutgan bo'lsa, ushbu konstruktivistik manifestda psixolog Bartlett F. bu atamalarni ongli ravishda eslab qolish harakatini osonlashtirishda o'tmishning dastlab xotiraga kiritilganlardan butunlay farq qilishi mumkin bo'lgan tasvirlarini yaratadigan kognitiv jarayonlarni tasvirlash uchun bir-birining o'rnida ishlatadi. Bartlett uchun bu tabiiy ravishda individual va o'ziga xos voqealarning xotira izlari xotirada saqlanmaydi, balki Bartlett tomonidan "sxema" deb ataladigan (garchi istaksiz bo'lsa ham) tasvirlar massasiga kiritilgan degan da'vodan kelib chiqadi. Bartlett sxemani inert statik tasvirlarning kombinatsiyasi sifatida emas, balki doimo faol va dinamik tasvirlar to'plami sifatida tavsiflaydi, ular har bir yangi tajriba bilan doimo xabardor bo'lib va o'zgarib turadi.

Bartlett ushbu tasavvurlar asosida xotiralarni "xayoliy qayta qurish yoki qurish" natijasi deb hisoblagan. Bartlettdan so'ng, xotira oldingi tajribaning oddiy takrorlanishi degan fikrga qarshi ravishda "qurilish" va "qayta qurish" atamalari so'nggi xotira adabiyotlariga kiritildi[5].

Shuningdek,tasviriy xotira ham, muhim hisoblanadi. T. Lyashoning fikricha tasviriy xotira to'liqroq idrok jarayonini ta'minlaydi: ob'ekt yoki hodisa tasviridagi sezgilar yetarli bo'lmasligi mumkin, ammo ushbu xotira turi yetishmayotgan ma'lumotni to'ldirishga va uni uyg'otadigan to'liq tasvirni shakllantirishga yordam beradi.

Tasviriy xotira xotira va ijodiy fikrlashning rivojlanishiga ta'sir qiladi. Tasviriy xotira xotiraning bir turi sifatida yanada barqaror bo'lib, u insonning shaxsiy qiziqishlariga asoslangan va uning shaxsiyatiga bog'langan.

P.P. Blonskiyning e’tirof etishicha tasviriy xotira tasavvur bilan bog'liq. Inson rivojlanishida xotira katta ahamiyatga ega. Har bir yosh bosqichida xotira jarayonlari o'ziga xos xususiyatlarga ega - daraja, tur va sifat xususiyatlari jihatidan. Ingliz tilini o‘zlashtirishni samaradorligini oshirishda uming ta’sirini aniqlash o‘smirlarlarning verbal va tasviriy xotirasini o‘rganib chiqish ushbu tadqiqotning asosiy maqsadlaridan biri[3].

Shunday qilib, xotira ingliz tilini o‘zlashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu jarayon turli xotira tizimlariga tayanadi: real vaqt rejimida qayta ishlash va tushunish uchun ishchi xotira, lug‘at boyligi va grammatik qoidalarni saqlash uchun deklarativ xotira, shuningdek nutqni avtomatlashtirish uchun protseduraviy xotira. So‘zlarni va grammatikani samarali o‘zlashtirish bevosita uzoq muddatli xotiraning samaradorligi ma’lumotni eslab qolish va qayta tiklash jarayonlariga bog‘liq. Bundan tashqari, xotira hajmidagi individual farqlar ingliz tilini o‘rganish tezligi va muvaffaqiyatini sezilarli

darajada oshiradi.

Ushbu mexanizmlarni tushunish o‘rganishning yanada samarali strategiyalarini ishlab chiqishga imkon beradi, masalan, takrorlash va tasviriy xotira jarayonidan foydalanish, o‘smirlarning xotira jarayonlarini rivojlantirishga yordam beradi va ingliz tilida erkin muloqotni yaxshilashga yordam beradi. Demak, xotira ikkinchi tilni o‘zlashtirishda asosiy omil bo‘lib, barcha o‘rganish jarayonlarining kognitiv poydevori hisoblanadi.

Metodlar. Tadqiqotda A.R.Luriyaning “Xotira” metodikasidan foydalanildi. Mazkur metodikaga ko‘ra mamlakatimizning 3 ta hududida joylashgan umumiy o ‘rta ta’lim maktablarining 90 nafar o‘quvchilarga jami 15ta so‘z o‘qib berildi. So‘zlar 3 marta takroran o‘qib berildi, so‘ngra javob varaqalariga eslab qolgan so‘zlarini qayd qilish ko‘rsatmasi berildi. Tadqiqotda jami 90 nafar qatnashgan respondentlar javoblarining umumlashtirilgan jadvali Samarqand, Jizzax va Toshkent viloyatlari hududlari bo‘yicha guruhlarga ajratildi va quyidagi jadvalda keltirildi.

ANOVA (Bir omilli dispersion tahlil)

Xotira (rasm bo‘yicha) tadqiqot natijalarining dispersion tahlili

Shkala	Hudud	N	O‘rtacha qiymat	Stdart og‘ish	Minimal	Maksimal	F	Ishonch darajasiSig.
Xotira rasm bo‘yicha	Samarqand	31	10,0968	3,18700	,00	16,00	7,474	,001***
	Jizzax	37	12,7568	2,37353	7,00	16,00		
	Toshkent	22	11,5909	2,98662	4,00	16,00		
	Jami	90	11,5556	3,02466	,00	16,00		

Tadqiqot so‘ngida, umumiy hisobda barcha respondentlarning tahlili natijasi o‘rtacha ko‘rsatkich 10,03 ball ekanligini ko‘rsatdi. Dispersion tahlil natijasiga ko‘ra $F = 4,975$, $Sig. = 0,009$ ($p < 0,01$) bo‘lib, uchchala hudud o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq mavjud ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalarining statistik tahlilini umumiy hisoblaganda barcha ishtirokchilar bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 8,08 ballni tashkil etdi. Shu o‘rinda, Anova dispersion tahlili natijasiga ko‘ra $F = 11,720$, $Sig. = 0,000$ ($p < 0,001$) bo‘lib, ushbu tadqiqot amalga oshirilgan hududlar o‘rtasida juda yuqori darajada statistik ahamiyatli farq mavjudligi aniqlandi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, ushbu natijalar ingliz tilini o‘zlashtirishda xotira jarayonini muhim o‘rin tutishini izohlaydi. Ingliz tili darslarida o‘smirlarning berilayotgan ma’lumot, axborotni, notanish so‘zlarni eslab qolishi, uni zarur vaqtda amalda tildan foydalanayotganda o‘z o‘rnida to‘g‘ri qo‘llay bilishi ingliz tilini o‘rganish samaradorligiga bevosita ta’sir qiladi. Xotira ko‘rsatkichlari yuqoriroq bo‘lgan o‘smirlarda odatda ingliz tilidagi yangi so‘zlarni, grammatik qoidalarni va matn mazmunini tezroq o‘zlashtirish birmuncha oson kechadi. Shuning uchun, ushbu tadqiqot natijalari o‘smirlarning ingliz tilini o‘zlashtirishida xotira jarayonini rivojlantirishga qaratilgan metod va texnikalar juda muhim ekanligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Shunday qilib, korrelyasion tahlil tahlil natijalaridan o‘smirlarning ingliz tilini o‘zlashtirishida ustuvor bo‘lgan psixik jarayon xotiraning verbal komponenti (xotira 1-qism va xotira 2-qism) bajaradi degan xulosaga keldik. Natijalar ingliz tilini o‘zlashtirishda xotira jarayonini muhim o‘rin tutishini izohlaydi. Ingliz tilini o‘rganishda o ‘smirlarning tasavvurdan foydalanishi tilni o‘zlashtirishda yordamchi omil sifatida namoyon bo‘ladi, xususan, keng fikrlash va muammoli vaziyatlarni tushunishda muhim hisoblanadi.Korellatsiyaga ko‘ra rasm bo‘yicha xotiraning ta’siri esa nisbatan pastroq ekanligi aniqlandi.

Bu ma’lumotlarga ko‘ra, ingliz tilini o‘qitishda mazkur bilish jarayonlari rivojlangan o‘smirlarni ta’lim jarayonida chuqurroq qadriyatlar va qiziqishlarga undash va yo‘naltirish osonroq, ya’ni yaxshi o‘quv natijalariga erishish osonroq. Ingliz tili darslarida o‘smirlarning berilayotgan ma’lumot, axborotni, notanish so‘zlarni eslab qolishi, uni zarur vaqtda amalda tildan foydalanayotganda o‘z o‘rnida to‘g‘ri qo‘llay bilishi ingliz tilini o‘rganish samaradorligiga bevosita ta’sir qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1] Подугольникова Т.А., М.Ф. Носова. Оценка уровня развития образной памяти у дошкольников // Дефектология. 2003. № 1. С. 76–83

[2] Tulving, E. (2000). Concepts of memory. In E. Tulving & F. I. M. Craik (Eds.), The Oxford handbook of memory (pp. 33–43). Oxford University Press.

[3] Blonsky, P. P. 1979, Selected pedagogical and psychological works, in 2 vols, in A. V. Petrovsky (ed.), Pedagogy, vol. 1, Moscow

[4] Campbell, 1976 – Campbell D. Assessing the Impact of Planned Social Change // Occasional Paper Series. Paper #8. 70 p.

[5] Bartlett F.C. Changing scene // British Journal of Psychology. – 1956. – Vol. 47. – P. 81–87. 7. Bartlett F.C. Exercises in logic. – Clive, London, 1922.

[6] Ляшко Т. Игра, творчество, развитие // Дошкольное воспитание. 1998. № 8. С. 45–47

[7] Daniel L. Schacter, Kenneth A. Norman, and Wilma Koutstaal. The cognitive neuroscience of constructive memory. Annu. Rev. Psychol. 1998. file:///C:/Users/Acer/Downloads/SNK98.pdf